

## NODIR NORMATOV HIKOYALARIDA MILLIY XARAKTER TALQINI

Temirova Nazira Akbayevna

Termiz shahridagi 26-maktab Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21767396>

**Annotatsiya:** Maqolada Surxon vohasidagi oddiy qishloq aholisining turmush tarzi, xarakteri ochib berilgan. Nodir Normatov hikoyalarini badiiy talqin qilish hamda Surxon vohasining o'ziga xos jihatlarini o'rganish maqsad qilingan.

**Abstract:** The article reveals the lifestyle and character of ordinary villagers in the Surkhan oasis. The aim is to artistically interpret the stories of Nodir Normatov and study the unique aspects of the Surkhan oasis.

**Аннотация:** В статье раскрывается образ жизни и характер простых жителей Сурханского оазиса. Цель – художественная интерпретация рассказов Нодира Норматова и изучение уникальных особенностей Сурханского оазиса.

**Tayanch so'zlar:** hikoyalar, ayol, chumoli, dialog, hayot, milliylik, qadriyat, portret, xarakter.

**Key words:** stories, woman, ant, dialogue, life, nationality, value, portrait, character.

**Ключевые слова:** рассказы, женщина, муравей, диалог, жизнь, национальность, ценность, портрет, персонаж.

XX asr II yarmi hikoyachiligida o'z ijodi bilan tanilgan yozuvchi Nodir Normatov asarlari ham o'sha davrning ijtimoiy-ma'naviy hayoti, davr qiyinchiliklari, qishloq odamlari turmush-tarzi, tabiat va inson munosabatlari, obyekt va subyekt o'rtasidagi jarayonlarni ochib bergan.

Nodir Normatovning "Mening tosh dostonlarim" turkumiga kiruvchi hikoyalarining barchasi avtobiografik xarakterga ega. Yozuvchi o'zi ko'rgan, bilgan, o'z boshidan kechirgan voqealarni badiiy ifodalaydi. Bunda ba'zan uning bolalik xotiralari ham motiv vazifasini bajargan.

Nodir Normatovning "Mening tosh dostonlarim" turkumiga kiruvchi hikoyalari bilan tanishsangiz, tosh oddiy, jonsiz ashyogina emas, balki unda qandaydir tabiatning ilohiy kuchi yashiringanligiga guvoh bo'lasiz.<sup>1</sup> Ushbu dissertatsiya ishi to'liq Nodir Normatovning ijodiga bag'ishlangan bo'lib, unda yozuvchining kuchli iste'dod egasi ekanligiga yana bir bor guvoh bo'lamiz.

Yozuvchining "Mening tosh dostonlarim" turkumidan joy olgan hikoyalarida birgina tosh obrazi orqali tabiatning barcha sir-sinoatlari va turli ajoyibotlari avtobiografik tarzda yoritib berilgan. To'plamdagi yigirmadan ortiq hikoyalardan birortasi to'qima emas, aksincha, hayotda aynan yozuvchining o'z hayotida bo'lib o'tgan voqealar, o'zi uchrashgan insonlar, o'zi yurgan joylar haqida hikoya qilinadi. Bu haqida adabiyotshunos Ibrohim G'afurov ham o'z fikrlarini bildirib o'tganlar: Nodir Normatov o'z asarlarining voqealari ichida yashab, bolalikdan o'sgan, ularni o'z boshidan kechirgan, ishtirokchi bo'lgan va yuragiga juda chuqur singdirgan. Haqiqatan ham, yozuvchilikning taqdiri – uning bolaligining taqdiridir. Biz bolaligimiz qanday bo'lsa, shunday yozuvchimiz. Yozuvchi o'z bolaligini umrining oxirigacha tasarruf qiladi. Insonning boshidan kechadigan barcha katta-kichik voqealar bolalikning nodir xislatiga egadir.

<sup>1</sup> ХУДОЙМУРОВА ХУРИЯТ МУХИДДИНОВНА. НОДИР НОРМАТОВНИНГ БАДИИЙ МАҲОРАТИ. ДИССЕРТАЦИЯ. Қарши –

Bolalik voqealari alaloqibat shoir-adibning doimiy ilhom va zavq manbaiga aylanadi. Nodir asarlarida biz buni yana bir karra jonli guvohi bo'lamiz.

Nafsilambirga, hech ajab emasdirki, bir qarashda odmi va dag'al, mutlaqo yo'nilmagan, randalanmagan bo'lib ko'rinadigan rang-barang hodisalar tug'ma nafosatning nafasi tekkanda, mo'jizakorlik maqomiga yetadi va o'ziga romu oshufta etadi. Yozuvchi, jurnalist, san'atshunos Nodir Normatovning asarlari shunday xususiyatga ega.

Surxonni bilmagan, ko'rmagan odamlar ham bu asarlarni o'qisa, shunday xulosaga keladiki, darhaqiqat, bu o'lkada bebaho oytosh kabi ich-ichidan nurlanib turadigan odamlar yashaydi. Nodir ularga mo'jiza kabi qaraydi, ular haqida oy gardishiga qarab, fol ochganday oybitiklar yozadi".<sup>2</sup> Yozuvchining barcha hikoyalarida o'ziga xos sehr bor. Unda har bir jonli va jonsiz narsalarning ham o'z dunyosi borligi, ular ham o'z olamida yashashiga guvoh bo'lamiz. Quyida shulardan "Bir kuni chumoli bo'lib" hikoyasini tahlilga tortamiz.

"Bir kuni chumoli bo'lib" hikoyasi asar qahramonining ajoyib giyohi behishtni bilmasdan og'ziga solish voqeasi bilan boshlanadi. Bu giyoh g'aroyib xususiyatga ega bo'lib, barcha chumolilarning bir kunlik hayotini kuzatadi, ularning tilini tushuna boshlaydi va hattoki ular bilan suhbat quradi. Chumolining aytgan gaplari uni shunchalik hayratga soladi: "Ey, odamzod! Biz sizning qavmingiz bo'lamiz, desam, ishonmading. Endi eshit! Gap shundaki, biz mana shu qabristonda yotgan marhumlarning tirikligida ishlatilmay qolgan miyalaridan chumoliga aylanib chiqqanmiz. Inson suratida yurgan paytlarimizda, insonlik haq-huquqimiz teng bo'lsa ham, uni suiiste'mol qilganmiz, ya'ni bir-birimizning ko'zimizga cho'p suqib yashaganmiz. Mana endi chumoliga aylanib qolganimizda, o'sha xatolarning o'rnini bosish uchun o'zimizning temir qonunlarimizni yaratganmiz. Bu qonun hammaga barobar. Biz qonunni insonchalik suiiste'mol qilmaymiz. Chumolilarning birdan-bir maqsadi shu".<sup>3</sup>

Biroq suhbat jarayonida qahramonimiz o'zini butunlay chumolining ixtiyoriga topshiradi. Bir umr hech kimga ayta olmagan sirlarini, dardlarini aytib undan yechim izlaydi. Uning uchun eng unutulmas dardlar bu: bir amaldorni o'zi istamagan holda maqtab, so'zni beqadr qilishi, oilasi bo'la turib bir ayol bilan nigohlarda suhbat qurgan tuyg'ulari hamda hayotda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalardan qo'rqishi uni juda-juda qiynab kelardi. Biroq chumoli uning so'z qadri va qo'rqoqlik hissiga da'vo topolmaydi, buning juda qiyin masala ekanligini, shunday bo'lsa-da yana boshqa chumolilar bilan maslahatlashishini aytib uzr so'raydi. Quyosh botishi bilan chumoli bu yerni tark etadi. Suhbatdoshi esa ancha yengil tortdi. Ammo qahramonimiz xafa bo'lmadi. Chunki u ham bir kuni mana shu qabristonga kelganda shu chumolilardek bo'lishi va ulardek fikrlashi, harakatlanishini o'ylab dildan sevinib ketadi.

Ushbu hikoyadagi chumoli bilan bo'lgan diolog Rabg'uziyning asarlaridagi "Sulaymon va qarinch" hikoyasini eslatadi. "Men chumolining bu gaplaridan dahshatga tushdim. Meni chumolining bu qadar zukkoligi o'ylantirib qo'ydi. Qayerdan biladi u bunday gaplarni? Yoki u birorta mashhur donishmandning aqlidan yaralganmikan? Ammo, bizning qishlog'imizda katta donishmandlar o'tganini eshitmaganman. Shuning uchun bu gapni ehtiyotkorona so'radim: «Sen bunday gaplarni qayerdan bilasan?»— Nega bilmayman. Eng zo'r kitoblarni bitgan qancha-qancha buyuk zotlar bu qaro yerda yotibdi. Biz — odamzod qavmidan bo'lgan barcha

<sup>2</sup> **Ibrohim G'afurov.** NODIRNING OYTOSHI YOKI SURXON RUHI

<sup>3</sup> Normatov Нодир. Bir kuni chumoli bo'lib / Бисот: Қиссалар, ҳикоялар. — ТОШКЕНТ: Sharq, 2012. —Б.325.

chumolilar bir-birimiz bilan muloqotda bo'lishga intilamiz".<sup>4</sup> Demak, barcha vaqtlarda ham chumolilar insonlarni o'zining aql-donishmandligi bilan qoyil qoldirib kelgan. Yuqoridagi hikoyada ham inson e'tiboridan chetda qoladigan muhim narsalar chumolilar tomonidan tuzatilgan va insonlarga uqtirishga urinish bo'lgan.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Quronov D. "Adabiyotshunoslikka kirish". – Toshkent: Meros, 2004. – B. 76-77.
2. Boboyev T. "Adabiyotshunoslik asoslari". – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – B. 71.
3. Норматов Нодир. Bir kuni chumoli bo'lib / Бисот: Қиссалар, ҳикоялар. – Toshkent: Sharq, 2012. –Б.325.
4. *Ibrohim G'afurov*. "Nodirning Oytoshi yoki Surxon ruhi" Maqola
5. Xudoymurodova Xuriyat Muxiddinovna. Nodir Normatovning badiiy mahorati. Dissertatsiya. Qarshi-2020

---

<sup>4</sup> Норматов Нодир. Bir kuni chumoli bo'lib / Бисот: Қиссалар, ҳикоялар. – ТОШКЕНТ: Sharq, 2012. –Б.325.